

**ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARIDA TABIAT OBRAZLARI VA
RAMZLARI****Nurmaxmatova Firuza Rasulovna***O'zbekiston Davlat Jahon tillari**Universiteti Ingliz filologiyasi**Fakulteti 2-bosqich talabasi**feruzanurmaxmatova2005@gmail.com*

Annotatsiya: O'zbekiston adabiyoti tarixida Aleksandr Arkadevich Faynberg nomi o'ziga xos o'rin egallagan. U o'zining she'riyat, nasr va dramaturgiyadagi sermahsul ijodi bilan o'zbek adabiyotiga o'zgacha ruh kirgizdi. Faynberg ijodida insoniylik, urush va tinchlik, muhabbat va sadoqat bilan bir qatorda, o'sha olis yoshlik paytida, geolog sifatida yurt kezgan chog'larida, oshiq bo'lgani - go'zal tabiat alohida o'rin tutadi. U tabiatni nafaqat go'zallik, balki falsafiy ramzlar vositasi sifatida ham ko'rardi.

Kalit so'zlar: tabiat obrazi, yomg'ir, shamol, kuz, iztirob, ramziy ko'zgu, ezgulik, falsafiy umumlashma.

Faynberg ijodiyotida tabiat shunchaki tasvir emas, balki inson ruhiyatning ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi. Uning she'rlarida yomg'ir, shamol, daraxt, qush yoki quyosh obrazlari ko'p hollarda inson hayoti, orzu-umidlari va kechinmalariga bog'lagan holda tasvirlanadi. Shoir uchun atrofimizni o'rab turgan mana shu go'zal tabiat hayotning ramziy ko'zgusidir.

Faynberg yozgan she'rlarda bahor-yangilanish va umid ramzi, kuz-iztirob va xotira ramzi sifatida ishlatiladi. Misol uchun, uning she'rlaridan birida "yomg'ir ostida qolgan yaproq" obrazida insonning yozg'izligi va chekayotgan iztiroblari o'z aksini topadi. Demak, shoir inson taqdirini tabiat hodisalariga uyg'un tarzda ochib beradi. Uning ijodida bir necha tabiat elementlari borki, ular insondagi xislatlarni gavdalantirish uchun ishlatiladi. Bulardan quyosh-hayot va ezgulik timsoli va aksariyat hollarda inson qalbidagi ishonchni bildiradi. Shamol bilan hayot o'zgaruvchanligi undagi sinovlar ko'rsatiladi. Daraxt esa mustahkamlik va barqarorlik ramzi sanaladi.

Faynberg tabiat manzaralaridan hayotiy ma'no izlaydi va xulosa chiqaradi. Masalan, uning kuz haqidagi she'rlarida inson umrining so'nggi bosqichlari, barglarning to'kilishida esa falsafiy o'y-qarashlar mavjud. Shu alfozda ijodkor tabiat obrazlari bilan inson hayoti va jamiyatni solishtirib, ularni bir biriga chambarchas bog'laydi. Yuqoridagi fikrlarning hammasini bir ajoyib she'r misolida ko'rishimiz mumkin.

G'amgin tortar tiniq ko'l bu choq

Kuz singari tund, bulutki yoz.

Yalangliklar titraydi olis,

Yomg'irlarda titraydi tuproq.

Bu satrlarda shoir tabiat manzarasini emas, ruhiy holatni tasvirlaydi. Bu yerda yozning o'zi kuzdek tund va sovuq tasvirlanmoqda. "G'amgin tortish", "Bulutli yoz" singari jumlar hayotdagi noxushliklar, tinchlik o'rnini iztirob egallaganining ramziy ifodasidir.

Sovuq yomg'ir tinmas zulmatda,

Olis, chekka, xilvat makonda

Baxtiyorman uchratgan ondan,

Seni topib bergan fursatdan.

She'ring dastlabki ikki satrida tabiat iztirobli tasvirlanadi. Keyingi ikki satrda esa bu sovuqlikni muhabbatning iliq tafti ilitadi. Bundan shunday fikrga kelsak bo'ladiki, hayot qanchalik zulmatli bo'lmasin, sovuq shamollar bizni qanchalik muzlatmasin muhabbat qalblarimizni barbir bu oxiri yo'qdek ko'rinadigan tashvishlardan qutqaradi, bizni shod etadi.

Aleksandr Faynberg she'rlarida tabiat o'zgacha mohiyatga ega. Ular atrofimizdagi ro'y berayotgan voqealarni ifodalash bilan bir qatorda, ramziy ma'noga ham ega. Faynberg tabiat manzaralaridan inson ruhiyatini ochib beruvchi vosita sifatida mohirona foydalanadi va uni samimiylik, hayotiylikni gavdalantirib beruvchi o'ziga xos unsur deb hisoblaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg she'rlar to'lami. - Toshkent, 1980
2. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent : Fan, 2005.
3. Ziya.uz - Adabiyot portali.
4. Pedagoglar.uz - Adabiy maqolalar bazasi.
5. Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha dastur va uslubiy qo'llanma.